

SMTI markazi rahbari Murod Uzoqov: Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy va xalqaro muloqotni mustahkamlashni davom etish muhim ahamiyatga ega



Joriy yil 7-fevral kuni Toshkentda "Xalqaro tinchlik va ishonch yili: Turkmanistonning global va mintaqaviy hamkorlikka qo'shgan hissasi" mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Tadbir Markaziy Osiyo xalqaro instituti tomonidan Turkmanistonning O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Davra suhbatida O'zbekiston Respublikasi tahliliy markazlari va akademik doiralari, Markaziy Osiyo, G'arbiy Yevropa, Janubiy Kavkaz, Rossiya va Belarus diplomatik korpuslari vakillari ishtirok etdi.

Ishtirokchilar Turkmaniston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarining xalqaro maydonda tinchlik va ishonch tamoyillarini ilgari surish borasidagi sa'y-harakatlarini, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda amaliy hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlarini atroflicha muhokama qildilar.

SMTI markazi rahbari Murod Uzoqov Turkmanistonning global barqarorlik va hamkorlikka qo'shgan hissasiga bag'ishlangan sessiyada ma'ruza qildi. U o'z nutqida dunyoda siyosiy muloqotni mustahkamlash

muhimligiga e'tibor qaratdi.

Ekspert ta'kidlaganidek, bugungi kunda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Xalqaro maydonda inqirozli tendensiyalar kuchaymoqda, global o'yinchilar o'rtasida ishonchsizlik va qarama-qarshilik ortib bormoqda.

Uning so'zlariga ko'ra, o'tgan yili Turkmaniston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining 2025 - yilni Xalqaro tinchlik va ishonch yili deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiyasi juda dolzarb va muhimdir. U bugungi kunda aynan shunday tashabbuslar zarurligini ta'kidladi, chunki ular barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillari sifatida tinchlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash va tinchlik o'rnatishga qaratilgan muloqotni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Ekspert ta'kidlaydiki, BMTning Turkmaniston tashabbusini qo'llab-quvvatlashi bu tashabbusning xalqaro hamjamiyat intilishlariga, shuningdek, umuman insoniyat va kelajak avlodlar manfaatlariga mos kelishidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Murod Uzoqovning fikricha, mazkur hujjat Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni mustahkamlash bo'yicha yondashuvlarini to'liq aks ettiradi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari nafaqat tashabbuslarni ilgari surayotgani, balki tinchlik o'rnatish tamoyillarini ilgari surish va muammolarni hal qilishga faol amaliy hissa qo'shayotgani ta'kidlandi. Global va mintaqaviy maydonlar tashkil etildi, muhim forum va anjumanlar muntazam tashkil etilmoqda, ularda tomonlar ishonch, xavfsizlik va birgalikdagi taraqqiyotni mustahkamlash bo'yicha aniq tavsiya va chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda.

Ekspertning so'zlariga ko'ra, bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmasdan, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning barqaror arxitekturasini bosqichma-bosqich qurishni davom ettirishi, muloqot, birlik, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlashi muhimdir.

Tadbirda so'zga chiqqan spikerlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqaro xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlari muhimligini, shuningdek, tinchlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash va ilgari surish zarurligini ta'kidladilar.

Davra suhbatida ishtirokchilar bo'lib o'tgan muloqotni yuqori baholab, global va mintaqaviy darajada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning dolzarbligini qayd etib, bunday uchrashuvlarni muntazam o'tkazib borishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.